

■ O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yo'llanmasi bilan

BIR O'LKAKI, TUPROG'IDA OLTIN GULLAYDI

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” ezgu g‘oyasi ostida yurtimiz bo‘ylab ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o‘tkazildi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yo‘llanmasi bilan tanikliq adiblar va shoirlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan yaqindan tanishish, bir mavzuda jonli va hayotiy misollar vositasida yangi asarlar yozish uchun yirik sanoat korxonalari, muhtasham qurilish va bunyodkorlik jabhalariga ijodiy safarga yuborildilar.

Aynan shu maqsadda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari G‘ayrat Majid, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, tanikliq shoir Salim Ashur, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Rustam Musurmon, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabbor “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati konlari va zavodlarida bo‘lishib, ulkan jamoamiz mehnat ahli amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdilar. Quyida Rustam Musurmonning ijodiy safar taassurotlari asosida yozgan maqolasini e‘tiboringizga havola qilamiz.

Kombinat “Konchilar hayoti” gazetasi xodimi Azamat Zaripov zamonaviy mikroavtobusda bizni Muruntov tomonlarga ekrashtirdi. Kun is-siq. Boshqaruv raisi maslahatchisi Xolmamat Raupov kuzatayotib shunday dedi:

– Kecha Uchquduqga borib keldim. Ekskavatorning temir narvoni tutqichini ushlasam, qo‘lim kuydi. Qalin qo‘lqop qiyoshingga to‘g‘ri keldi. Konchilar ana shunday issiqda mehnat qilayapti. Hozir yoz chillas. Qish chillasida esa ayovsiz qora sovuq bo‘ladi. Issiqni issiq, sovuq-ni sovuq demay konda ishlayotgan jasoratli yig-it-qizlar hamqiy qahramon!

Bepoyon Qizilqum sahorining qahrabo manzaralari yo‘lovchilar nigohini mafsun etadi. To‘q pushti rangda gullab, sollanayotgan yul-g‘unlar, g‘adir-budir qo‘llarini osmonga cho‘z-gan odamdek tik turgan saksovullar goh to‘p-to‘p, goh siyrak-siyrak bo‘lib sahroga sochilib ketgan.

Zamonaviy transport ichida havo sovutkichdan salqiniga shabada ufurib tursa-da uchq yo‘l, tashqaridagi bir xil manzara ko‘zni toliqtiradi. Beixtiyor mizg‘iganimni sezmay qoldim. Qulog‘imga hamrohlarimning g‘ovur-g‘ovur gu-runglashayotgani eshitildi. Bu yerlarga birinchi kelishim. Qizilqum Ustyurt, Mo‘ynoq tomonlar-iga o‘xshab ketarkan. Bepoyon kenglik. Osmo-nu falaklarida oltin lagandek ko‘zni qamashlirib yaraqlayotgan quyosh borliqqa o‘ta harorati nurilarini oltin zararlari misoli cheksiz himmat bilan sochaveradi, sochaveradi... Xazinasi aslo ado bo‘lmaydi. Ona Vatanimizning ko‘z ilg‘amas bepoyon kengliklarida Oybek domlaning O‘zbe-kistonni madh etib badiiylarning avj pardalarida kuylagan she‘ridagi oltin satrlar, shoh baytlar beixtiyor yodga tushadi.

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor,
Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa, quyosh sog‘i-nar,
Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar.

Qizilqum sahorisida ketayotib, katta yo‘lning o‘ng tomonida paydo bo‘lgan ko‘p qavatli uylar-i oppoq, daraxtlari yam-yashil shaharni ko‘rib, hayratlandik.

Nurboy domla bu shaharni bilarkan:

Azamat, bu Zafarobod shahri-ya? – dedi.

– Ha, bu Konimex tumani Zafarobod – kon-chilar shaharchasi, – deb javob berdi Azamat. – Zafarobod shaharchasida “Navoiyuran” kor-xonasining yirik uran ishlab chiqarish bo‘lin-malaridan biri “Zafaobod” kon boshqarmasi joylashgan.

Bugun bizning Yangi O‘zbekistonimizda af-sonalar hayotga evrilmoqda. Nihoyatda qisqa fursatda katta-katta shaharlar bunyod bo‘lmoq-da. Zafarobodda to‘xtamadi. Bizni Muruntov-da, 7-gidrometallurgiya zavodida konchilar ku-tishmoqda.

7-gidrometallurgiya zavodi – texnogen chi-qindilarni qayta ishlaydigan dunyodagi eng yirik korxona. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan zavodda murakkab jarayonlar or-qali qayta ishlangan (texnogen) ma‘danlardan mahsulot olish yo‘lga qo‘yilgan. Korxona fao-liyati barcha ekologik talablarga javob beradi.

O‘tgan davr mobaynida kombinat mutaxas-sislari tomonidan ushbu zavodda o‘nta te-girmon blokini ishga tushirishga, eng muhimi, loyihami belgilangan muddatdan oldin bajarish-ga erishildi. Zavod 2020 yildan mahsulot bera boshladi. Ta’kidlash joizki, 2026 yilda zavodda 26 million tonna ma‘dan qayta ishlanadi. Za-vod idorasining ikkinchi qavatida joylashgan.



ma‘naviyat xonasida konchilar bilan uchrash-dik. Mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi haftaligi boshlangani munosabati bilan ijodiy kecha o‘tkazdik.

Ijodiy safarimizning rejasi bo‘yicha navbat-dagi manzil – “Muruntov” koni. Bizni zavod bi-nosi ostonasidan kuzatayotgan konchilar:

– Hov anavi tog‘ning orqasiga o‘tsangiz, Mu-runtovga borasiz, – deyishdi. Muruntovga yet-ganimizda, soat millari o‘n ikki raqamini ko‘r-satardi. Ishchilar tushlikka chiqadigan vaqti bo‘libdi. Ular ijodiy guruhimizni o‘zlarining dasturxoniga taklif qilishdi.

Ovqatlarga belgilangan me‘yorda nima ta-lab qilingan bo‘lsa, masalliglarining barchasi bekamu ko‘st solingan. Sevimli shoirimiz Sa-lim Ashur aslida kangap bo‘lsada, o‘z hayratini yashirolmadi:

– Bironta restoranda bu darajada to‘kin, taqnommasi risoladagidek dasturxon yozilgan-i ni ko‘rmaganimiz, qoyil!

“Muruntov” koni boshlig‘i Nuriddin Kamolov tomiga bayroq ilingan maxsus mashinalarda dunyodagi eng yirik oltin koniga olib bordi. Kon-dan ochiq usulda oltin qazib olish ishlari qizg‘in davom etmoqda. “Muruntov” konining uzunligi 6 kilometr, eni 4 kilometr hamda bugungi kunda-gi chuqurligi 750 metr ekan. Konchilar nihoyatda katta hajmdagi ishini kechayu kunduz tinimsiz ravishda amalga oshirmoqda.

“Muruntov” konidan shu vaqtgacha ikki mil-lard kubometrga yaqin tog‘ jinslari qazib olingan. Ushbu ko‘rsatkich uning oltin qazib olinadigan konlar o‘rtasidagi o‘rni naqadar yuqori ekanini isbotlaydi.

Qizg‘in va shiddati mehnat jarayonini, mashhur Muruntovni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rga-nimizda O‘zbekiston Qahramoni ustoz Abdulla Oripovning “Muruntov” nomli she‘ridagi badiiy tasvirlar naqadar hayotiy ekaniga amin bo‘ldik.

Qadimiy Muruntovga
Boqib bugun yarayman.
Turfa yangi manzillar
Zalvoriga qarayman.

Hatto bir kon hududini
O‘lchab yurish bofyoda.
Bunaqasi uchraydi
Balki Mirrix yo Oyda.

Oltin nihoyatda noyob ma‘dan. Geolog olim-lar uning paydo bo‘lishi haqida turfa taxminlarni bayon qilishadi. Ba‘zilar Yer sharining eng tu-bida, yadrosida qaynayotgan ma‘danlar kuchli bosim ostida qatlamlar orasidan sizib chiqib, to-shu tuproqlar orasida qotib qoladi. Gohida olto-vu lava shaklida vulqon bo‘lib otiladi. Yer negizidan chiqqan o‘sha ma‘danlar ichida oltin bor, de-yishadi. Ba‘zilar esa koinotdan yerga qulagan meteoritlar, fazo ma‘danlari yerga tushib, tog‘u toshlar, qumlar qa‘riga sochilib ketgan, deyisha-di. Har ikki fikrni ham hech kim inkor etolmaydi. Oltin mo‘jizaviy metall.

Ustozimiz Abdulla Oripovning Muruntovdek oltin koni Mirrix yoki Oyda uchrashi mumkin degan fikrlarida haqiqat bor. Balki oltin cheksiz koinotdan Yaratganning ne‘mati bo‘lib yerga tushgandir. Quyosh oltindek tovlanadi. Oy va yulduzlar oltindek yaraqlaydi. Aslida ona say-yoramizning o‘zi ham oltin. Cheksiz fazoda ay-lanib yurgan Yer shari ham o‘zga sayyoralar-ga oltindek tovlanib ko‘rinishiga shubha yo‘q. Kon boshlig‘i Nuriddin Kamolov bizga Muruntov mo‘-jizalari, oltin konining sirlari haqida maroq bilan so‘zlaydi:

“Shu vaqtgacha konni bir yarim kilometr

chuqurlikkacha qazib o‘rgandik. Oltin zaxira-si to‘rt yarim ming tonnani tashkil etadi. Nasib bo‘lsa, bu kon mamlakatimizni qiyomatga dovur oltin bilan ta‘minlaydi, deb ishonaman, deydi u va hazil qilgan bo‘ladi. Qazaveraylik-chi, nari borsa, Yer sharining narigi tomonidagi Amerika-dan teshib chiqarmiz...”

Konchi yig‘itining iftixor bilan aytgan gaplari qulog‘imizga moyday yoaqdi.

Uchquduq madaniyat saroyida Xalqlar do‘st-ligi kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbir maroqli va qiziqarli bo‘ldi. Zal shu sahralarda yig‘itlik bur-chini o‘tayotgan vatan himoyachilari, konchilar-ning oila a‘zolari, nuroniylar va yoshlar bilan liq to‘ldi. Qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar, rus, tojik tillarida qo‘shiqlar ijro etildi. Konsert dasturida O‘zbekiston bayrog‘i ostida birlashib, nurli kela-jak sari dadil odimlayotgan ko‘p millatli xalqimiz-ning birdamlik tuyg‘usi yorqin namoyon bo‘ldi.

Ertasiga Uchquduq-Zarafshon yo‘liga tush-dik. Yonimda o‘tirgan Baxtiyor Shamsiddinov yo‘l-yo‘lakay konlarni ta’riflab ketadi:

– Huv anavi tog‘ni ko‘ryapsizmi? Uni ma-halliy aholi Dovg‘istov deb ataydi. Uzun cho‘-zilgan tog‘ xuddi oyoqlarini uzatib, osmonga qarab yotgan qizga o‘xshaydi. Shuning uchun unga Dev qiz, katta, juda ulkan qiz deb nom be-rishgan... Uzoqqan ko‘karib ko‘rinayotgan tog‘ tizmalariga boqdim. Cho‘zilib yotgan qizga o‘x-shashi rost ekan. Ufq chekkasida boshi, yelka-lari, ko‘kraklari, beli, oyoqlarining uchlarigacha aniq-tiniq ko‘rinadi. Uxlab yotgan dev qizning uyig‘onib, oyoqqa qalqanini tasavvur qildim. Haqiqatdan ham konchilar ilmu sinot bilan dev qizni uyig‘otib, uning etaklaridan oltin olmoqda, mamlakatimiz xazinasiini boyitmoqda.

Shimoliy kon boshqarmasiga qarashli “Au-minzo-Amantoy” koniga bordik. Ma‘naviyat xonasida uchrashuv o‘tkazib, dil izhorlarini ting-ladik.

“Amantoy” konidan so‘ng 5-gidrometallur-giya zavodiga bordik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yilning 28 martida Navoiy viloyatiga tashrifi davomida Navoiy kon-me-tallurgiya kombinatining 5-gidrometallurgiya zavodi qurilishiga tamal toshi qo‘yilgan. 2021 yilda “Auminzo-Amantoy” oltin koni negizidagi ushbu yangi zavod qurib bitkazilgan. U yiliga 5 mln tonna sulfidli va oksidli rudani qayta ishlash quvvatiga ega.

Zavodning noyobligi shundaki, unda dunyo-da o‘xshashi bo‘lmagan mutlaqo yangi texno-logiya, ya‘ni kislorodli-ohakli oksidlash asosida oltin ajratib olish texnologiyasi qo‘llanilmoqda. Zavodda ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq av-tomatlashtirilib, raqamli ishlab chiqarish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, korxonada gidro-metallurgiya jarayonini takomillashtirish uchun tarkibida nozik tarkibli oltin bo‘lgan mahsulotni olishiga imkon beradigan flotatsion konsent-ratni maydalash jarayoni joriy etildi.

Konchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida 2,5 ming kishilik ishchilar shahar-chasi qad rostlagan. Ishchilar bilan suhbatlash-dik. Ularning turar joylari, dam olish uchun yara-tilgan sharoitlar bilan tanishdik.

Kechga yaqin Uchquduqdan Navoiy shahri-ga qaytdik. Mikroavtobus oynasidan tashqariga qarab, xayol surdim. Devqiz qo‘llarini silkitib, biz bilan xayrlashgandek bo‘ldi.

Sahrodagi ulkan quyunlar gir aylanib charx uradi. Qumlar butalar orasida tez yuguradi, eshilib-to‘lg‘anib raqs tushadi. Quyosh temirchi o‘chog‘ida eritilib qizargan oltindek yaraqlaydi.

Konchilar faqat oltin qazish bilan emas, qip-qizil sahroda qalin o‘rmonlar barpo etib ham mo‘jiza yaratarkan ekan. 6-gidrometallurgiya za-vodi darvozidan kirishimiz bilan ro‘paramizda yam-yashil so‘lim bog‘ paydo bo‘ldi. 160 gektar-dan ziyod maydonda barpo etilgan ushbu bog‘ g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy nomi bilan atalar ekan. Turli manzarali va mevali da-raxtlardan tarkib topgan bu bog‘dagi daraxtlar osongina ko‘karib, o‘z-o‘zidan yam-yashil o‘r-mon bo‘lib qolgan emas. Sahroda bog‘ yaratish mashhaqqati kon tubidan oltin qazib olishdan

ham qiyin.

“Pistali” konida Nurota tumanidagi Kentob, Qizilcha, Temirqovuq qishloqlarida yashaydigan aholi kelib ishlar ekan. Konda ish qizg‘in.

2023 yil “Pistali” oltin koni negizida barpo etilgan 6-gidrometallurgiya zavodi 5 million ton-na ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati boshqa-ruvidagi zavodlar va konlarda kunu tun ish tin-maydi. Konchilar kunduzgi va tungi jadval bo‘yi-cha mehnat qiladi. Shu sababli zavod hududida ishchilar uchun dam olish uylari qurilgan. Kom-binatda uzoq yillardan buyon ishlab kelayotgan Nasima O‘runova 6-gidrometallurgiya zavodiga qarashli Alisher Navoiy nomidagi bog‘, “Vaxta” deb nomlangan shaharcha boshqaruviga mas‘ul ekan.

– Kun tartibiga vazifa qilib qo‘yilgan ishni oxirigacha bajartirmay qo‘ymaydi bu opa, juda qattiqqo‘l, – deydi Azamat Zaripov. – Ana shun-day g‘ayratli, shijoatli yurtodoshimiz o‘z mehnati bilan barchaga ibrat bo‘ladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat mamlakatimiz iqtisodini rivojlantirishda, balki buyuk bobomiz Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish, yoshlar orasida keng targ‘ib etish borasida ham namunalni faoliyat yuritmoqda. Kombinat homiyligida badiiy adabiyotlar nashr etilmoqda, xalqaro anjumanlar, yosh ijodkorlar-ning Zomin xalqaro seminari o‘tkazilishi hamda viloyatda Alisher Navoiy bog‘lari, shoir qahra-monlari tasvirlangan yodgorliklar barpo etishda amaliy yordam ko‘rsatilmoqda.

Alisher Navoiy zargarlik dastgohlari, olovda oltin eritish usullari, uning sofligini sinash bo‘yi-cha xalq tilida mavjud so‘zlar vositasida begiyo-s badiiy obrazlar yaratadi. “Mahbub ul-qulub”da shoir shunday yozadi: “Safar ko‘rai guvoz va so‘zdur va ul guvoz va so‘ze erning vujudiy oltuni-g‘a iyoranduzdur”.

“Iyoranduz” oltinning tozaligini o‘lchovchi, sinovchidir. “Qo‘ra” olovxona, o‘choq; zargar va temirchilarning metall eritadigan o‘chog‘i. “Ko‘rai guvoz” toblovchi, jizg‘in qiluvchi, kuy-diruvchi o‘choq. “So‘z”ning kuydirish, o‘rtash, otash, alanga degan ma‘nolari ham bor. De-mak, ulug‘ shoir aytmoqchiki, safar kuydiruvchi o‘choq va otash-alangadir va bu yonib-kuyish bilan otashin so‘z labing oltini sofligi, haqiqiyligi va qiymatini o‘lchovchidir. Odamning ko‘ngli qanchalik sof bo‘lsa, uning so‘zlari ham oltindek bebaho va qimmatli bo‘ladi. Bu safarda ko‘ri-na-di. Safar keng ma‘noda insonning bu dunyoda yashagan butun umri va faoliyatini ham ang-latadi. Biz she‘riyatning birlamchi quroli sifati-da foydalanib yurgan so‘z “gap”, “ibora”, “fikr” ma‘nosidan boshqa o‘t, “olov”, “otash”, “kuydi-ruvchi”, “yondiruvchi” kabi tushunchalarni ham anglatarkan ekan. Qarang, Alisher Navoiy nazmida so‘z naqadar kengayib, bepoyonlashib, teran-la-shib, naqadar kuchayib ketgan.

Jonig‘a bir o‘t solibon so‘zu dard,
Kim kuyub ondin falaki lojuvard.

“Hayratul-abror”dan keltirilgan ushbu mas-naviy baytda shoir, uning joniga bir otashin, kuydiruvchi dard o‘t soldi, bu otashdan lojuvard falak kuyub ketdi, deydi. So‘z otashi o‘t solgan yurak osmonu falaklarni quyoshdan ham kuch-liroq kuydiradi, degan badiiy tasvir tasavvurni qamashliradi.

Biz Navoiy kon-metallurgiya kombinatning konlari va zavodlari ishchi-xodimlari yoz fas-lining jazirama chillasida chekayotgan zahmatla-rini ko‘rib, ushbu zamonamiz qahramonlarining yuraklaridagi otash, o‘t, alanga naqadar kuchli, ko‘ngillaridagi so‘z otashin ishq, Vatanga mu-habbat oltindek yariqiroq va bebaho ekaniga amin bo‘ldik.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining oltin dav-rida yashayapmiz va mehnat qilayapmiz. Oltin davrga munosib oltin so‘z kerak!

Rustam MUSURMON.
Toshkent - Zarafshon - Uchquduq -
Nurota - Navoiy - Toshkent

■ Xushxabar

YANGI LABORATORIYA ISH BOSHLADI

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida xomashyo zaxiralarni qidirish va aniqlash Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi jamoasi zimmasiga yuklangan. Geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi esa nafaqat yer qa‘ridan olingan namunalar, balki ularni qanchalik tez, aniq va ishonchli tahlil qilish imkoniyati bilan ham belgilanadi.



O‘zbekiston Respublikasi davlat musi-taqilligining 35 yilligi arafasida Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida Namuna-tahlil laboratoriyasi foydalanishga topshirildi. Zamonaviy asbob-uskunalar bilan ji-hozlangan hamda raqamli boshqaruv yechimlari va namuna olish tezkorligiga ega mazkur laboratoriyaning ochilishiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ rahbari-yati, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi ish-chi-xodimlari ishtirok etishdi. Mustaqillik bayrami munosabati bilan bir guruh ish-chi-xodimlar, quruvchilar tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi. Zamonaviy laboratoriyaning foydala-nishga topshirilish korxonada burg‘ilash ishlaridan tortib, namuna tahlilini 3D modellashtirish va zaxiralarni aniq ba-holashgacha bo‘lgan yagona texnologik janjir yaratish, “raqamli geologiya”dan “aqli geologiya”ga o‘tish yo‘lidagi muhim qadamdir. Bu yerda bir sutkada 400 ta-gacha geologik namuna qisqa muddatda

tahlil qilinadi.

Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida birlamchi geologik hujjatlarni to‘plash va tahlil qilish, mahalliy geologik ma‘lumotlar bazasini yaratish va raqamlashtirish, mi-neral resurslarni baholash jarayonlarida “Micromine”, “Geobank” va “Leapfrog” kabi zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanilmoqda. Shuningdek, zaxiralarni xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan “JORC Code” hisobot standartlari asosi-da baholashga alohida e‘tibor berilmoq-da. Yangi laboratoriyada natija yagona geologik axborot tizimining muhim qismi sifatida tahlil qilinadi. Namuna olinishidan boshlab, uning tahlil natijasi, geografik ko-ordinatasi, geologik tavsifi va modeldagi o‘rnigacha bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘zaro bog‘liq holda shakllantirish zamonaviy geologiyaning asosiy talablaridan biridir. Ushbu zamonaviy laboratoriyaning ishga tushirilishi natijasida 50 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Dildora KARIMOVA.

■ Safar taassurotlari

“KO‘HNA QIT‘ADA O‘ZBEKISTONNI SOG‘INDIK”

“Samolyot, samolyot, qanotingni pastlab o‘ti!”

Bolaligimizda, ko‘kda samolyot ko‘rsak, unda uchishni orzu qilardik, agar vertolyot pastlab uchsa bormi, bizdan-da baxtiroq bola bo‘lmasdi! “Samolyot, samolyot, qanotingni pastlab o‘t...”, deya yugurardik. Mana, o‘lis bolalikdagi o‘sha orzuga yetish arafasida turib-man. Hamkasb ayollar bilan qudoz-seminarda qatnashish uchun Chehiya Respublikasiga yo‘l olyapmiz.



Qariyb sakkiz soatlik yo‘l emish. Turkiya-ga bir qo‘nib, nafas rostlab, yana ucharkan-miz. Shoir ta’kidlaganidek, cheksiz fazodagi koinotlararo salmog‘i Quvaning anoricha kuyotaytir! Bu muhtasham aeroportda atro-fimda yurgan-turgan, mijja qoqqan-mudra-gan, shoshilgan yohud yugurayotgan turli odamlar turfa xil o‘ylar, tashvishlar, rejaralar bilan qaytaqadirl otlanishayotganda, men ertaklar mamlakatiga yo‘l olayotgan bola-kaydek beg‘ubor xayollar suraman. Ko‘k-simda taqdiridan rozilik hissi gupuradi. Kom-binatimizda mehnat qilayotganimdan g‘u-

rurlanib ketaman. Kombinativimizda erkaklar bilan bir safda 6 ming nafardan ziyod xotin-qizlar mehnat qiladi. Biri – narvoni bulutga tushgudek kran mashinisti, biri mo‘jizaviy kumoning asrorlaridan boxabar metallurg, biri – yozning jaziramasiyu qishning ayoziini ko‘zga ilmaydigan kon ishchisi, biri bunyod-ko-r – quruvchi, biri ma‘danni boyituvchi, biri xonalarga nur olib kiruvchi tozalik posboni, biri quyoshni kuzatib, oym qarshilovchi ser-gak soqchi, biri sahroda gul undirayotgan bog‘bon!

Inson – ulkan hayrat, boshdan-oyoq mo‘-jiza! Uning zohiriyu botini ham, aqli va ruhiy olami ham ulkan bir koinotdir. U – kashf etil-gan va etilmagan, hadsiz-hududsiz borliq, qadam yetmagun sayyora go‘yo!

Davomi 2-betda

■ **Safar taassurotlari**

“KO‘HNA QIT’ADA O‘ZBEKISTONNI SOG‘INDIK”

❏ **Oxiri. Boshlanishi 1-betda**

Agar g'avvos bo'lishni eplasak, qalbmizda bir ummon chayqalib yotibdi. Yangi tongga, yangi kunga, borliqning har bir ne'matiga, oqu qorasiga, yo-zilgani-yu yozilmaganiga shukrona keltirish ana shu g'avvosning qanotini uchqur qiladi. Ne'matlardan hayratimiz toshgandagina o'sha ummonni ang-laymiz. Haqiqiy hayrat ham aynan shu nuqtadan boshlanadi. Shoira Xalima Xudoyberdieva bejjizga: “Avval ichingda qil ibodatingni, Avval ichingda yoy shahd-qanotingni!”, deya nido etmagan.

Zero, insonga ato etilgan ne'matlar beqiyos, uning qadri va ulug'ligi ham shunchalar yuksakdir. Bu mo'tabarlikda, ayniqsa, ayolingning izzati hamisha baland tutilgan. Tarbiyasi va ma'naviy saviyasi-ga ko'ra, har erkak jamiyatning nozik vakillariga mehr-oqibat, g'amxo'rlik va yuksak hurmat ko'rsa-tishni burch deb biladi. Bugun, iste'molimizga sin-gib ulgurgan “Gender tenglik” atamasi xalqimizga shaklan begona bo'lsa-da, mazmunan yaqin, ba-sharti, ayolga e'tibor va mehr ko'rsatish ta'limoti dunyoga ustozlik qilgan donishmand ajdodlarimiz tomonidan allaqachonlar tuzib, hayotga tatbiq etib ketilgan.

Zamon-zamon bizning zamon, davron bizniki,

Qo'limizda yer-u osmon, imkon bizniki

Darhaqiqat, zamon bizniki bo'ldi – biz onalarning zamonamiz keldi! Nega “onalarning zamonasi” de-yapman, otalarning emas? Chunki, jamiyatdagi har bir erkakning qaysidir onaga, ayolga, opa yo singl-ga jon, qon ila bog'langan jihatlari bor. Bugun, Yan-gi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar ayniqsa, xotin-gizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, hayotidan rozi bo'lib, baxtli yashashini ta'minlashdek ulug'vor strategiyani qamrab olgan, bu esa yuqori-da ta'kidlaganimdek, jamiyatning qudratli vakillariga jondosh, qondosh munisalarining, onalarning saoda-ti, demakki olamning saodatidir. Zero, jamiyatning baxti ayolning baxtidan boshlanadi. Xullas, islohotlar shiddati sabab, bugun o'zbek ayollari nafaqat o'z yurtimizda, balki xorijda ham o'qib, tajriba almashi-nib, malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Toshkent xalqaro aeroportida uchoqqa hozirlik ko'ra-yotgan biz – kombinatning 5 nafar ayollari - “NKMK” AJ Gender tenglik va inklyuzivlik xizmati bosh muta-

xassisi Nigora Amonova, “NKMK” AJ Transformat-siya boshqarmasi bo'lim boshlig'i Ra'no Kasimova, “Qizilqum” kon boshqarmasining ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha inspektori Nilufar Djavberdie-va, Markaziy kon boshqarmasi Yoshlar yetakchi-si Saodat Boboyorova va kaminani ham mazkur yangilanishlar shu yerga yetaklagandi. Ko'nglimda yuzlab xotin-gizlar safida men ham taqdirimga dun-yo e'tirofidagi ulkan korxonada mehnat qilishdek ne'mat bitilganidan shukronalik, mazkur seminar-da ishtirok etish imkonini yaratgan kombinatimiz rahbariyatiga minnatdorlik hislari toshar, shu bilan birga, har bir o'zbek onasi kabi uyidan bir qadam uzoqlashsa, ko'kragini beixtiyor jizillatib turadigan, izohlab bo'lmas bir tuyg'u qalbmni qamrab olgandi.



Hali manzildan uzoqlashmay turibiq, uyimning isi, bolalarimning ovozi, xonadonimiz fayzi ko'z oldim-ga kelaverar, ona uchun masofa kilometrlar bilan emas, sog'inchlar bilan o'lchanishini tobora tushunib borardim. Bu tuyg'u qadim o'zbekona tarbiyami yo avloddan-avlodga o'tayotgan milliy qadriyatni, bil-madim, ammo bir haqiqatni bilaman: o'zbek onasi dunyoning qaeiriga bormasin, yuragida uyini ko'tarib olib ketadi... Ovro'po sari yo'l olarkanmiz, qo'limizda-gi chemedonlarga safar uchun kerakli anjomlar joy-landi, yomg'ir tez-tez yog'adigan yurt deya, yomg'ir-po'shni, sog'lig'im sovuq bilan kelishmasligini o'ylab issiqroq kiyim ham olishni unutmadim. Yuragimizda esa Vatan mehri, xonadonimiz harorati, farzandlar sog'inchi va yaqinlarimiz duosini ham birga olib jo'-nadik.

“Yo xudbinman, yo bir sodda kasman men...”

Ovro'poga otlangan guruhimizga kombinatimiz-ning ilm-ma'rifatli mutaxassisi Ra'no Kasimova bosh-chilik qilganlari ayni muddao bo'ldi! Uzoq yillik kasbiy va hayotiy tajribaga ega Ra'no opa Chexiyaning boy tarixi, xususan, Praga qal'asi, Charlz ko'prigi, Kar-lovi Vari kurort shahri, mamlakatning geografiyasi, xalqining madaniyati, arxitekturası, xizmat ko'rsatish sohasi, avtomobilsozlik, elektronika, kimyo sanoati, turizm, umuman, bu yerdagi ijtimoiy-madaniy hayot, iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida batafsil tushuntirib, tafakkurimizni yanada boyitdilar. Madaniyat, san'at, ilm-fan, texnologiya yuksak darajada rivojlangan. Barcha jabha insonning qulay yashashi uchun yo'-naltirilgan, biroq, odamizotning tug'ilishidan to qabr-ga kirgunga qadar bo'lgan jarayonda ma'naviyatning ishtiroki masalasi bizning mentalitet uchun g'oyat muhim va dolzarb ekanini inobatga olib qiyoslaydi-gan bo'lsak, bu borada mamlakatlarimizaro tafovut yer bilan osmoncha!

O'tkazilgan o'quv mashg'ulotlari, seminarlar, us-tozlar bilan muloqot va munozaralar tobora bizga o'zimizning o'sha qadim hikmat naqadar haq eka-nini tasdiqlardi: ayol bir qo'li bilan beshikni, birida dunyoni tebratadi! Bizning yurt ayollari uchun oila muqaddas, uy-ro'zg'or katta maktab, qutlug' dars-xona, bola tarbiyasidek zalvorli va ulug' ish sharaf sanaladi. Beixtiyor, Sharof Boshbekovning “Temir xotin”idagi Qo'chqor akaning haqiqatini eslayman: “Tavba... Alomatga biron-bir ortiqcha yumush bu-yurgan bo'lsam, til tortmay o'lay... Nima ish qilib qo'yibdi? Hali qatorlashtirib yetti-sakkizta bolani tug'ib qo'ygani yo'q, kechalari uxlamay beshik quchoqlab chiqqani yo'q, har bolasi bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'ayganiyam yo'q... Axir u (temir xotin) bitta o'zbek ayoli qiladigan ishning yarmini qildi, xo-los-ku!...” O'lhohning mo'jisasi hisoblanmish o'zbek ayolining sabri bir asror bo'lsa, fidoyiligi, bag'rikeng-ligi yana bir asror, xuddi turli ma'danlar ichra ya-shiringan oltin kabi sirli-sinoatli! Uni tushunmoq va kashf etmoq uchun ham ilm zarur. Endi tasavvur qilavering, o'zbek ayolining birgina tandir-o'chog'i “ti-lini” tushunmoq uchun qanchalar ilm kerakligini! Me-ning boshqa xalqlar tarixi, an'analarıyu madaniyati, tili va e'tiqodiga hurmatim yuksak, ammo, Pragada asrlar bilan yuzlashgan beqiyos madaniy yodgorlik-lar ham, ko'm-ko'k tabiatu yuksak madaniyat ham, inson uchun xizmat qiladigan real muhit ham bizni bu yerda uzoq tutib turolmasdi. O'zligimiz haqiqatini anglaganim sari yurtimning sog'inchi ortaverdi. Qal-



bimda, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf: **“Yo xudbinman yo bir sodda kasman men Parining eng go'zal restoranlarin Bitta tandingga alishmasman men!”, deya hayqirardi...**

“Har jonga Vatan kerak, hatto o'liklarga ham!”

Vatan haqida Qo'chqor Norqobulning bu satrla-ridan oshirib bir gap aytish qiyin. Hayrat ko'z orqali ko'riladi, ammo, uni tafakkur va qalb imkoniyatlari-dan kelib chiqib xis etiladi. Sharqdan bosh ko'tara-yotgan quyosh, shom shiftiga yulduz ildirayotgan oqshom, suv ohangiga ilhaq o'sayotgan maysalar, yomg'irdan chayingan xushifor tuproq. Dunyoning qaeiriga bormang, bunday manzara, hamma man-zilu makonda topiladi, ammo, ona Vatangagina xos bo'lgan, hech yerda muqobilı topilmaydigan jihatlar borki, ana shu betakror hislar sabab inson Vataniga talpinadi. Bo'lmasa, urush maydonida ikki dunyo orasida turgan – hush-behush odam uchun uning murdasi qaeirga ko'milishining tash-vishi nima uchun kerak? Xalqumida joni qalqib turgan bemor shifoxonaga emas, oilasi, yaqinla-riga talpinishining boisi nima? Qancha-qancha olamg'irlar jahon keza-keza, axiyrı, bir siqim ona tuproqni vasiyat qilmaganmi? Ha, bu yurtning o'x-shashi yo'q! Xulosa shuki, ko'hna qit'ada O'zbe-kistonni sog'indim.

O'zbekligingizni birinchi ko'rganimdayoq bil-ganman, o'zbeklarim!

Bolalikdan erta turishga odatlanganman. Bu odatim o'g'limga ham yuqqan. Buvim rahmatli qushlardan ham erta turardilar. Pragadamiz. Do-

■ **ЛЮДИ НАШЕГО КОМБИНАТА**

ГДЕ НАЧИНАЕТСЯ РУДА

Карьер «Мурунтау» - сердце Навоийского горно-металлургического комбината — не знает тишины. Здесь работа не останавливается ни на минуту — ни днём, ни ночью. Пока один экипаж завершает смену, другой принимает технику, чтобы вновь загудели буровые установки, двинулись многотонные самосвалы и экскаваторы. Огромный карьер живёт в круглосуточном ритме, где каждая минута подчинена единой производственной цепочке.



Именно буровики первыми приходят туда, где вскоре начнётся добыча руды. Прежде чем экскаваторы поднимут руду, а самосвалы отправятся по своим маршрутам, буровики должны выполнить первую и одну из самых ответственных операций — подготовить скважины для буровзрывных работ. Здесь нет случайных людей: точность, опыт и ответственность каждого машиниста определяют успех всей последующей работы.

Для Хусниддина Нематовича Райимова этот ритм давно стал частью собственной жизни. Уже тридцать три года он встречает смену среди уступов крупнейшего открытого рудника страны. Бригадир машинистов буровой установки рудника «Мурунтау» Центрального рудоуправления, полный кавалер отраслевого нагрудного знака «Горняцкая слава», он принадлежит к тем людям, благодаря которым огромный карьер продолжает жить в своём непрерывном ритме.

Удивительно, но своё будущее он увидел ещё подростком. Не было долгих поисков себя, смены интересов или случайного выбора. После восьмого класса он твёрдо решил стать буровиком. Возможно, сказался пример дяди, работавшего на урановом руднике, возможно — атмосфера Зарафшана, где практически каждая семья связана с большим горным производством. Так или иначе, юношеская мечта оказалась сильнее времени.

Семья Райимовых переехала в город Зарафшан в конце семидесятых. Отец, железнодорожник по профессии, работал дежурным по станции в Управлении железнодорожного транспорта. Здесь Хусниддин пошёл в школу, здесь появились

друзья, здесь сформировалось понимание того, что настоящий человек должен иметь дело, которым можно гордиться.

В период прохождения производственной практики во время учёбы в ПТУ№4 он впервые оказался на буровом участке №2 рудника «Мурунтау», внимательно наблюдал за опытными рабочими, старался запомнить каждую мелочь. Его наставниками стали Василий Евтеев и Хамид Шамигулов — люди старой горняцкой школы, для которых передать опыт означало не просто научить профессии, а воспитать отношение к труду. Сегодня Хусниддин Нематович с благодарностью вспоминает своих наставников, убеждённый, что именно они научили его главному — уважению к профессии и ответственности за результат.

Работа буровика не терпит поверхностности. Здесь мало просто уметь управлять машиной. Нужно слышать технику, понимать характер породы, чувствовать оборудование. Машинист буровой установки должен быть одновременно механиком, гидравликом, электриком и сварщиком. На производстве счёт часто идёт на минуты, поэтому многое приходится делать собственными руками.

Каждая смена начинается одинаково: инструктаж по технике безопасности, получение наряда, обязательный осмотр установки, разговор со сменщиком. Только убедившись, что все системы исправны, можно приступать к работе.

Со стороны кажется, что буровая машина лишь медленно перемещается от одной точки к другой. Но за этой внешней размеренностью скрывается сложный технологический процесс. Нужно точно выставить установку, выровнять её, выполнить бурение строго по проекту, затем перейти к следующей скважине. И так — двенадцать часов подряд.

Особенно непросто работать сегодня, когда карьер становится всё глубже, а породы — всё крепче. Именно поэтому на руднике постепенно появляются современные буровые установки Еріос. Одну из первых таких машин Хусниддин Райимов вместе со своей бригадой и специалистами предприятия собирал собственными руками.

Он не скрывает: новая техника действительно делает работу эффективнее. Автоматизированные системы управления, цифровой контроль, комфортная герметичная кабина — всё это облегчает труд. Но главного, говорит он, техника заменить не сможет — профессионального опыта человека. В этом, пожалуй, и заключается особенность настоящих мастеров. Они никогда не противопоставляют себя новым технологиям. Они помогают им работать.

Сегодня на руднике уже работают одиннадцать современных буровых установок Еріос, и их число продолжает расти. Новая техника позволяет значительно увеличить темпы бурения, что особенно важно в условиях расширения горных работ. Если ещё недавно объём бурения составлял 3,7 миллиона погонных метров в год, то сегодня предприятие уверенно движется к показателю более 7,8 миллиона. Но за каждым этим метром — труд людей, которые ежедневно спускаются в карьер.

За три десятилетия Хусниддин Нематович сам стал наставником. Через его бригаду прошли десятки молодых рабочих.



Многие сегодня уже возглавляют собственные экипажи, работают бригадирами, обучают следующих новичков. Он даже не пытается сосчитать всех своих учеников.

И всё же самым дорогим своим учеником считает сына. Когда-то маленький Исламбек впервые увидел огромный карьер из кабины отцовской машины. Тогда он решил, что обязательно станет буровиком. Сегодня это уже не детская мечта, а профессия. Получив высшее инженерное образование, молодой специалист сознательно начал путь с рабочей специальности.

— Сначала хочу понять производство полностью, с самых трудных работ, — объяснил сын отцу свое решение. Наверное, именно так и продолжают трудовые династии — не по принуждению, а благодаря личному примеру родителей.

Сам Хусниддин Нематович никогда не любил громких слов. Когда спрашиваешь его, не надоела ли за тридцать три года одна и та же работа, он лишь улыбается: «Нет. Я еще в школе хотел стать буровиком». В этих простых словах нет пафоса. Есть спокойная уверенность человека, который однажды нашёл своё место в жизни.

После смены он возвращается домой, где его ждут семья, супруга Феруза, много лет работающая медицинской сестрой, дочь Юлдуз, связавшая свою жизнь с учебным центром Центрального рудоуправления, и маленький внук Мухаммад Али, с которым дедушка теперь проводит каждую свободную минуту. Когда-то Хусниддин Нематович увлекался самбо, гиревым спортом, футболом, настольным теннисом, защищал честь предприятия на соревнованиях. Теперь он наблюдает, как вырастает новое поколение.

Он не считает себя героем. Не любит говорить о наградах, хотя отраслевой знак «Горняцкая слава» всех трёх степеней — признание, которого удостоиваются лучшие представители профессии. Его главное достижение — это уважение коллег, благодарность учеников и чувство, что каждое утро он приходит туда, где действительно нужен.

О людях труда редко говорят громко. Они не привыкли к высоким словам и не стремятся быть в центре внимания. Но именно благодаря таким профессионалам работают крупнейшие предприятия страны, растут города и развивается промышленность. И пока на рассвете над уступами «Мурунтау» вновь раздаётся размеренный гул буровой установки, можно быть уверенным: у большого дела есть надёжная опора. Такие люди, как Хусниддин Райимов.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ **Xabar**

YANGI QURILMA

suvdan oqilona foydalanish imkonini beradi

Dunyoda iqlim o'zgarishi va suv resurslarining taqchilligi sharoitida suvdan oqilona foydalanish Qizilqum sahrosi hududida faoliyat yuritayotgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.



Suvdan samarali foydalanish korxonada tejankor raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda. Bu yo'nalishda kombinat Yoxsh muhandislar kengashi mutaxassislari tashabbusi bilan Tarmoqlar va podstantsiyalar sexi va Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasida suv resurslarini 5 barobar-gacha tejash imkonini beruvchi avtomatik sug'orish boshqaruv tizimi yaratilib, ushbu sexda yangidan barpo etilgan bog'da sinab ko'rildi.

— Loyiha ustida ish boshlashdan avval mavjud tizimlarning kamchiliklari, ayniqsa, suvning behuda sarflanishi va tuproqning me'yorida ortiq namlanib ketish holatları o'rganildi. Shu paytgacha qo'llanib kelingan sug'orish usuli kutilgan natijani bermayotgan edi. Bunda bir qancha muammolar mavjud edi. Nazoratning yo'qligi, ya'ni tuproqning haqiqiy namligi

bilinmasdi, natijada yer yo had-dan tashqari ko'p sug'orilib yubori-lar yoki suv tegmay qurib qolardi. Tuproqning past-balandligi hisobga olınmasdi. Oqibatda pastlik joy-larında suv to'plansa, balandliklar quruq qolaverardi. Jarayon doimiy ishchi kuchini talab qilardi va suv behuda isrof bo'lardi. Biz yaratgan avtomatik sug'orish boshqaruv ti-zimi zamonaviy elektronika, aqlii sensorlar va intellektual boshqaruv texnologiyaları yordamida kamchi-liklarni to'liq bartaraf etmoqda, — deydi Yosh muhandislar kengashi a'zosi, Avtomatlashtirilgan noston-dari vositalarni tayyorlash labora-toriyasi boshlig'i Sardor Norbayev.

Bugungi kunda kombinatning yosh muxandislari tomonidan ya-ratilgan ushbu qurılma barcha bo'-linmalarda joriy etilishi rejalashtir-gan.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati.

■ Ijtimoiy mas’uliyat

MEHR VA UMID MASKANI

Kuz tarovati... Uzoq safar oldidan yo'l tadorigimizni puxta ko'rib, manzilga ertaroq yetib borish ilinjida erta tongda yo'lga tushdik. Havoda hali saharning mayin salqini sezilib turgan bo'lsa-da, ufqdan bosh ko'tarayotgan quyosh kunning iliq taftidan darak berayotgandi. Shahar shovqini ortda qolgach, mashina cheksiz sahra bo'ylab, naydek tep-tekis yo'ldan yelib borardi. Bu yo'l bizni Zarafshon shahridagi mehr maskani - "Umid" reabilitatsiya markaziga yetkoldi.

Ijodkor yo'lga otlandim deguncha, xayollar og'ushiga cho'madi. Bunday lahzalar mushohada qilish, kuzatish va yangi taassurotlarni kashf etish uchun eng qulay fursat. Mashina oynasidan lip-lip o'tayotgan manzaralar xuddi kino tas-masidek ko'z oldimizdan o'tadi. Har bir tepalik, yo'l bo'yidagi sarg'aygan o't-o'lanlar yoyinki ufqdagi sokin manzaralar xayolimizda ajib bir hikoyani jonlantirgandek go'yo...

Sahroning issiq nafasi yuzimga urilib, xayollarimni har yon to'zg'itsa-da, qalbimdagi kechinmalarga monelik qilol-masdi. Bu cheksiz sarhadlar asrlar davomida ne-ne karvonlar, qanchadan-qancha taqdirlarga makon bo'lgan. O'lis chaqirimlar inson umri ham mana shu shiddatli shamolek tez o'tib ketishini, bizdan faqat yaxshilik va mehr-oqibat qolishini yanada chuqurroq anglardir.

Yeldek uchib borayotgan mashina ichida og'ir jimlik hukm surar, hamrohlarning har biri o'z xayollari bilan band. Shu tobda yuragimning tub-tubidan tizginsiz savollar sizib chiqar, dunyoni faqat ezigulik qutqarishini, mehming asl bahosini yanada chuqurroq tushunib yetardim. Nega bugungi kunda mehr-oqibat tuyg'ulari sekin-asta susayib bormoqda? Nega ayrim qalblarni nafrat va xudbinlik egallab, odamlar birbirining ildiziga bolta urish payida? Axir, in-sonni inson qiladigan, uning borlig'ini go'zallashtiradigan mana shu mehr-shafqat, samimiyat va hurmat emasmi?! Bugun jahonning turli mintaqalarida avj olayotgan notinchliklar hech kimga sir emas. Go'-daklar ko'z yoshlari, bir qarich yer uchun toptalayotgan inson qadr-qimmatini... Dunyodagi mana shunday og'riqli voqealarni o'ylasang, o'z yurtindagi tinchlik-xotirjamlikning qadri naqadar ulug'ligini his qilasan, tinch yashayotganingga shukur qilasan.

Yillar menga hayotga va atrofdaqi voqealarga teranroq nigoh bilan boqishni, har bir narsaning sabab va oqibatini chuqur

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri — har bir bolaning sifatli ta'lim olishi va jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy moslashuvi hamda sog'lom rivojlanihini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada "Umid" reabilitatsiya markazi - davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qilmoqda. 2022-yil 22-iyunda 48 nafar tarbiyalanuvchi bilan faoliyatini boshlagan muassasa bugungi kunda yanada kengayib, 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 72 nafar bolani ta'lim-tarbiya va reabilitatsiya jarayoni bilan qamrab olgan. Bu yerda 2 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun tibbiy tiklanish va sog'lomlashuvga qaratilgan maxsus xizmatlar tashkil etilgan. Tarbiyalanuvchilar o'ltita guruhga ajratilgan holda zamonaviy talablar va amaldagi me'yorlar asosida ta'lim-tarbiya olmoqda hamda ularga zarur tibbiy va qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar ko'rsatilmoqda. Muassasada har bir bolaning yoshi, imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual yondashuv asosida o'quv-tarbiyaviy jarayon tashkil etilgan. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvi hamda jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Maskanda tarbiyalanuvchilarning sog'ayib, ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit mujassam. Yam-yashil futbol maydonchasi, qishki va yozgi suzish havzalari, yugurish yo'lakchalari, shinalar shiypolar hamda katta ekranli zamonaviy kinoteatr zali ularning ixtiyorida. Binoning ikkita qavatida maxsus liftlar ishlab turibdi, xonalardagi mebel-lar bolalar xavfsizligi va qulayligi talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan.

Bugungi kunda muassasada 30 na-

lari muntazam o'tkazib boriladi.

- Muassasamizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya, korreksion-rivojlantiruvchi va reabilitatsiya ishlari o'zining samarali natijalarini bermoqda, - deydi tashkilot rahbari Dilafruz Fayziyeva. - Xususidan, 2022–2025-o'quv yillari davomida muassasamizni bitirgan 36 nafar tarbiyalanuvchining 12 nafari umumiy turdagi umumta'lim maktablariga, 7 nafari esa inklyuziv sinflarga yo'naltirildi. Bu esa tarbiyalanuvchilarning ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli moslashayotganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, muassasamiz mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan individual logopedik mashg'ulotlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, davolovchi massaj va reabilitatsiya muolajalari natijasida uch yil davomida 32 nafar tarbiyalanuvchining funksional holati sezilarli darajada yaxshilanib, ular umumiy turdagi mak-tabgacha ta'lim tashkilotlariga yo'naltirildi. Bu yerda kunlik davolash jarayonlari oddiy mashqlardan iborat emas. Defektolog, surdopedagog, psixolog, fizioterapevt, pediatr, otolaringolog, nevropatolog va boshqa mutaxassislarning tinimsiz mehnati tufayli tayanch-harakat tizimida nuqsoni bor ko'plab bolalar dardni yengib, shifo topmoqda. Ular muassasaga kelganida tayanch-harakat tizimidagi og'ir dard sabab mustaqil yura olmasdi. Ba'zilar bu yerda kasallikdan butunlay xalos bo'lib, sog'lom tengdoshlari qatoriga qo'shilib, oddiy davlat bog'chalariga o'tkazildi. Ayrim-lari to'la sog'ayib, uyiga, ota-onasi bag'riga qaytdi.

Bu muassasada faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarning hamjihatligi va fidokorona mehnati samarasidir. Har bir tarbiyalanuvchining kichik yutug'i ortida shifokorlar, pedagoglar, tarbiyachilar va psixologlarning uzoq yillik tajribasi hamda mehnati mujassam. Ana shunday jonkuyar mutaxassislardan biri muassasa psixologi Xursand Siddiqova. U ko'p yillardan buyon

ni uyiga olib ketish uchun kelgan ekan. — Qizim tug'ilganidan keyin unga bolalar serebral falaji tashhisi qo'yildi. Tengdoshlari yugurib-o'ynab yurgan paytda u hatto mustaqil o'tira olmasdi. Ona sifatida farzandingizning qiynalayotganini ko'rib yashash juda og'ir ekan. Yillar davomida shifokor izlab sarson bo'ldik. Turli muassasalarga murojaat qildik, biroq kutgan natijamizga erisha olmadik. Ba'zan umidimiz so'nib qolgandek tuyulardi, — deydi Gul-sanam opa.

Uning aytishicha, qizi bir yil avval mazkur muassasaga qabul qilingan. — Bu yerdagi mutaxassislar farzandimga faqat davolash muolajalarini emas, hayotga bo'lgan ishonchni ham qaytardi. Fizioterapevtlar, tibbiy davolovchi jismoniy tarbiya yo'riqchilari, defektologlar, psixologlar va shifokorlar birgalikda harakat qilishdi. Biz uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak, — deydi u ko'zlariga yosh olib.

Adiblardan biri ona mehrini dunyodagi eng buyuk jasoratga qiyoslagan ekan. Haqiqatdan ham, farzandining kelajagiga ishonchini yo'qotmagan ona qalbida tengsiz matonat mujassam bo'ladi. Gulsanam opa bilan suhbatdan so'ng bu fikriming naqadar to'g'ri ekaniga yana ham amin bo'ldik. Yillar davomida farzandi dardi bilan kurashgan, umid va tushkunlik orasida yashagan bu ayol bir laha ham taslim bo'lmadi. Bugun esa uning ko'zlaridagi sevinch yoshlari, qizining quvnoq kulgusi ana shu sabr va ishonchning samarasi emasmi?!

“Ko'ngil olish — haj qilishdan afzaldir, chunki ko'ngil Alloh taolo nazar soladigan asl maskandir”, deb bejiz aytishmagan. Davlatimiz rahbarining “Birorta bola davlatimiz va jamiyatimiz mehridan chetda qolmasligi kerak”, degan so'zlari bugun Zarafshon shahrida ayni haqiqatga aylanib, yuzlab mulzam ko'ngillarni obod qilmoqda. Mehr va e'tibor bilan qilingan har qanday

■ Faxriylar haqida hikoyalar

Ziyrak gazetxon mazkur maqolada tajribali shifokor xususida so'z borishini darhol payqagan bo'lsa ajabmas. Hech shubhasiz, kundalik turmushda har bir kasbning alohida o'rni bor hamda barcha kasblar egalari hurmat va e'tirofga munosibdirlar. Insonlar salomatligining posbonlari bo'lgan shifokorlarga munosabat yanada ayrica. Bu kasb qanchalik mashaqqatli bo'lsa, shunchalik sharaflidir. Xaloskoriga ilhaq nigoh bilan termulib, faqatgina darddan forig' bo'lish haqida o'ylaydigan, bu eng katta orzu-niyatiga aylangan bemorning ahvolini bir tasavvur qilib ko'ring! Bemorning aka-ukalari, opa-singillari, yaqinlari borligi, ularning ham o'y-fiklari qarindoshlarining tezroq sog'ayib, oilasi bag'riga qaytishi bilan band ekanligi esa shifokorlik kasbi ahamiyatini chandon oshirishi turgan gap.



E'ZOZLI KASB SOHIBI

Hayotning bir qolipga tushmaydigan qonun-qoidalar shunday. Bandamiz, issiq jonning isitmasi bo'lishi tabiiy. Demak, shifokorning birgina bemorni davolab, hayotga qaytarishi ko'plab insonlarga quvonch, xonadonlarga shodlik bag'ishlaydi. Bu esa odamlarni turli xastaliklardan davolashdek mas'uliyatli kasbni tanlagan kishidan halovaddan voz kechib, tunlarni tonglarga ulashni, fidoyilikni, umr bo'yi o'z ustida qunt bilan ishlashni, zamonaviy bilim va yangiliklardan xabardor bo'lishni talab etadi.

Agarda vrach akusher-ginekolog bo'lsa, uning zimmasidagi mas'uliyat yanada yuqori bo'ladi. Kasb mashaqqati o'z yo'lga, orziqib kutilgan farzandini bag'riga bosgan baxtli onaning minnatdor chehrasini ko'rganda shifokordagi charchoq alomatlari o'rmini kasbidan faxrlanish hislari egallaydi. Samarqand davlat tibbiyot institutini tugatganidan buyon ufgan yarim asrdan ortiqroq mehnat faoliyatini akusher-ginekologlik kasbiga, yosh shifokorlarni tarbiyalashga bag'ishlab kelayotgan tajribali vrach Gulchehra Aliyeva necha marotaba shunday hayajonli va yoqimli hislar girdobida bo'lmagan, mehnatlari besamar ketmayotganligiga shukronalar qilmagan, deysiz! Turmush o'rtog'i Mustafa Boboqulov ichki ishlar organlarida xizmat qilganligi bois xonadon turli shahar va tumanlarga ko'chib yurishga va Gulchehra Xodjayevna ana shu manzillarda ayollar va bolalar salomatligiga posbonlik qilishiga to'g'ri keldi.

U mehnat faoliyatining dastlabki o'n sakkiz yilida Kogon, Navoiy shaharlari, Ishtixon tumani kasalxonalarida akusher-ginekolog, Ayollar maslahatxonasi, ginekologiya bo'limi mudiri, Samarqand shahar tug'riqxonasida akusher-ginekolog vrach sifatida ishlab, ko'plab xotin-qizlar dardiga shifo berdi, onalik baxtiga musharraf bo'lishiga, sog'lom chaqaloqlar tug'ilishiga hissa qo'shdi.

Gulchehra Xodjayevnani Navoiy shahri ahli yaxshi bilishadi va qadrlashadi. Chunki malakali shifokor faoliyatining asosiy qismi Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qarashli Tibbiy-sanitariya qismi Ayollar maslahatxonasida kechdi. Maslahatxonada dastlab akusher-ginekolog, so'ngra uzoq yillar davomida mudir bo'lib ishlagan Gulchehra Aliyeva ayollar sog'lig'ini muhofaza qilish barobarida qator yosh vrachlarga boy bilim va tajribasini ham o'rgatdi. Bugun Tibbiyot-sanitariya bo'limi Ayollar maslahatxonasi, tug'ruq bo'limi shifokorlarining aksariyati o'zlarini Gulchehra Xodjayevnaning shogirdlari hisoblashadi. Bo'lim boshlig'ining onalik va bolalik bo'yicha o'rinbosari Sevara Pushkinovna Ikromova hamda Ayollar maslahatxonasi mudiri Gulbahor Esanovna Nuriddinovaning Gulchehra Aliyevaning nafaqat vrach, balki TSB xotin-qizlar boshlang'ich tashkilotining boshlig'i sifatidagi xizmatlarini ham alohida e'tirof etishganliklari fikrimizning isbotidir.

“Gulchehra Xodjayevna malakali vrach, zarur paytda odamlarga yordam qo'lini cho'zadigan mehribon ayol sifatida haqli ravishda navoiyliklarning hurmat-e'tiborini qozongan. Bu inson bilan qariyb yigirma yil birga ishlab, uning har qanday kishiga namuna qilib ko'rsatishga arzigulik fazilatlariga guvoh bo'lganman. Gulchehra Aliyevaning shifokorlik kasbiga sadoqati,

mas'uliyatliligidan yoshlar namuna olsa arziydi. Gulchehra Xodjayevna asosiy faoliyati bilan birgalikda Tibbiy-sanitariya bo'limi tug'ruqxonasida navbatchilik qilar, zimmasidagi vazifalarni vijdonan, sidqidildan bajarardi”, - deydi Sevara Ikromova.

Darvoqe, Gulchehra Xodjayevnaning Ayollar maslahatxonasi mudiri bo'lish bilan birgalikda bo'lim xotin-qizlar Kengashi raisi sifatida jamoani vatanparvarlik, kasbga sadoqat, halollik va bemorga mehr-muhabbat ko'rsatish ruhida tarbiyalash, xotin-qizlar o'rta sportni, sog'lom turmush tarzini, azaliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish borasida olib borgan ishlari ham tahsinga munosibdir. U Navoiy shahri mahallalar fuqarolar yig'inlari bilan mustahkam aloqa o'rnatib, uchrashuvlar tashkil etar, tibbiyot, sog'lom ona - sog'lom bola mavzusida ma'ruzalar o'qir, yosh oilalar bilan suhbatlar uyushtirardi.

Gulchehra Aliyeva samarali amaliy va jamoatchilik faoliyati uchun Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda Tibbiy-sanitariya bo'limi rahbariyati tomonidan bir necha bor mukofotlangan. U “O'zbekiston mustaqilligiga 25 yil”, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati faxriysi” ko'krak nishonlari, “Xotin-qizlar qo'mitasining eng namunali boshlang'ich tashkiloti” ko'rik-tanlovining birinchi darajali diplomi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, shuningdek Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi “Namunali ichki ishlar organlarining tayanch punktlari” ko'rik-tanlovining “Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkilotining ibratli raisi” nominatsiyasida g'olib bo'lib, viloyat Ichki ishlar boshqarmasining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan. Gulchehra Xodjayevna 2021 yilda “Mu'tabar ayol” ko'krak nishoniga sazovor bo'lishi uning xizmatlariga berilgan munosib bahodir.

Gulchehra Aliyeva baxtli oilaning baxtli bekasi. O'g'illari Akmal va Rustam, qizlari Dildora va Nargizalar turli sohalarda mehnat qilib, oilasiga ham, jamiyatga ham foyda keltirmoqdalar. Gulchehra opa va turmush o'rtog'i Mustafa aka to'qqiz nafar nevara xonadonning yaxshi an'analarini davom ettirishlari va boyitishlariga qat'iy ishonishadi. Hayotning haqiqiy mazmuni ana shunda mujassam bo'lsa ne ajab!

Kichik qizi Nargiza ona kasbini tanlaganidan Gulchehra Aliyeva behad quvonadi. Buxoro tibbiyot institutini, Rossiya Federatsiyasining Bakulev nomidagi tibbiyot institutining ordinata va aspiranturasini muvaffaqiyatli tamomlagan Nargiza Boboqulova Moskva shahridagi nufuzli klinikalardan birida kardiojarroh bo'lib xizmat qilayapti.

Mehnat faxriysi Gulchehra Xodjayevna uйда o'tirib qolishni aslo xayoliga keltirmaydi. U ayni paytda Navoiy davlat universiteti tibbiyot fakulteti hamda tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va ixtisoslashtirish Respublika markazi Navoiy filialida pedagog-o'qituvchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Universitetning tibbiyot fakulteti talabalari tajribali shifokorning ma'ruzalarini maroq bilan tinglashadi. Bu ma'ruzalarda tibbiyot sohasiga oid bilimlar va amaliy tajribaning uyg'unlashganligi talabalarda tanlagan kasblariga mehrlarini oshirmoqda. Shifokor Gulchehra Aliyevaning hayot yo'li ko'pchilik insonlar, ayniqsa tibbiyot xodimlari uchun ibrat maktabidir.

Nizomiddin SADRIDDINOV.



mushohada qilishni o'rgatdi. Gohida yosh yigit-qizlarning hayotdan nolib, arzimagan qiyinchiliklardan norozi bo'lib yurganlarini ehsitmas, ichimda bir tuyg'u g'alayon qiladi. Ularni to'xtatib, oddiy va hayotiy haqiqatni tushuntir-gim keladi. Siz bugun ega bo'lgan cheksiz imkoniyatlar, qulayliklar va erkinliklar shunchaki, o'z-o'zidan bo'lgani yo'q! Shular haqida bir o'ylab ko'rsangiz-chi, degim keladi.

Misol izlayapsizmi? Uzoqqa borish shart emas. Chinakam mehr qo'rg'oniga aylangan “Umid” reabilitatsiya markazining o'zi bunga eng go'zal isbotdir. Bundan bir necha yil avval Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi kabi chekka tu-manlarda yashovchilari, imkoniyati cheklangan farzandini Navoiy shahridagi maxsus maktabga olib borish uchun sarson bo'lgan, yo'l azobidan qiynalgan ota-onalarning dardini kim tinglardi? Bugun esa bolalarlar o'z uylari yaqinida, dun-yo andozalariga mos maskanda bepul davolanishyapti. Ba'zan afroimizdagi imkoniyatlarni ko'zimiz ilg'amaydi. Va-holanki, zamonaviy ta'lim va tibbiyot muassasalarida farzandlarimiz uchun yaratilayotgan keng sharoitlar ortida katta mehnat, mas'uliyat va inson qadriga cheksiz e'tibor mujassam. Yoshlarimiz ana shu ne'matlarning qadriga yetib yashashlarini istardim. Zero, imkoniyatining haqiqiy bahosini anglash uchun undan mahrum insonlar hayotiga bir bor nazar tashlashning o'zi kifoya. Inson qadri va bolalar baxti uchun g'amxo'rlik qilish — bu faqat bugunni emas, millat-ning ertangi kunini ham as-rash demakdir.

far pedagogik xodim faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan har bir bolaning ehtiyoji va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda individual korreksion mashg'ulotlar tashkil etilgan. Bu mashg'ulotlar jarayonida mutaxassislar tarbiyalanuvchilarda mavjud nuqsonlarni bartaraf etish uchun bolaga mos va xos bo'lgan texnologiyalar, vositalardan foydalanishmoqda. Xususan, defektologlar bolalarning bilish jarayonlari, nutqi, tafakkuri va mayda motorikasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib borishsa, logopedlar nutq nuqsonlarini bartaraf etish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va nutqni rivojlantirish ustida ishlashadi. Psixologlar bolalarning ruhiy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish va emosional rivojlanihini qo'llab-quvvatlash maqsadida individual hamda guruhli mashg'ulotlar o'tkazadilar. Shuningdek, jismoniy davolash va davolovchi jismoniy tarbiya xonalarida harakat faolligini oshirish, tayanch-harakat tizimini mustahkamlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Sensor integratsiya xonalari-da maxsus jihozlar yordamida bolalarning sezgi organlari faoliyati, muvozanat va ko'rdi-natsiya qobiliyatlari rivojlantirilmoqda.

Fizioterapiya, oftalmologiya, mayda motorika, audio sinflar hamda ertak terapiyasi xonalari dunyoning ilg'or davlatlaridan keltirilgan tibbiy-ortopedik uskunalar va zamonaviy trenajyorlar bilan ta'minlangan. Har bir jihoz ko'rish, eshitish va harakatlani-sh bilan bog'liq nuqsonlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga mo'ljallangan. Ochiq va yopiq basseynlarda suv muolaja-

imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlab kelmoqda.

- Har bir bolaning ichki dunyosi o'ziga xos. Ayrimlari o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda eta olmaydi, ba'zilar esa atro-fdagilar bilan muloqot qilishdan cho'chiydi. Bizning vazifamiz ularga faqat psixologik yordam berish emas, balki o'z kuchiga ishonishni, atrofdaqlar bilan erkin muloqot qilishni o'rgatishdan iborat. Bolaning yuzidagi tabassumni ko'rish, avval qo'ldan kelmagan ishni mustaqil bajarayotganiga guvoh bo'lish mehnatimizning eng katta samarasidir, — deydi Xursand Siddiqova. - Har bir tarbiyalanuvchi bilan alohida ish olib boramiz. Mashg'ulotlar davomida ertak terapiyasi, o'yin usullari, art-terapiya va turli rivojlantiruvchi mashqlar orqali bolalarning ruhiy holatini mustahkam-lashga e'tibor qaratamiz. Ayniqsa, muassasaga dastlab kelganida o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishga qiynalgan yoki o'z qobiliyatiga ishonmagan bolalarning vaqt o'tishi bilan faol va muhitga moslashib borayotgani bizlarga kuch bag'ishlaydi.

Xursand opaning aytishicha, har bir bolaning dardini o'z dardidek qabul qilish, natija uchun o'yab, ba'zan yillab mehnat qilishga to'g'ri keladi. Ammo tarbiyalanuvchilarning hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, ularning mustaqil qadam tashlashi va kelajakka ishonch bilan qarashi barcha mashaqqatlarni unutirdi.

Muassasada uchquduqlik Gulsanam opa Tirkasheva bilan suhbatlashdik. U bu yerda davolanib, reabilitatsiya kursini muvaffaqiyatli yakunlagan qizi Solihaxon-

Dildora KARIMOVA.

■ Sport

OMMAVIY MARAFON O‘TKAZILDI

Navoiy shahridagi “So‘g‘diyona” o‘yingohida mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan ommaviy yugurish marafon keng ko‘lamda va yuqori tashkiliy darajada o‘tkazildi. 35 va 45 yoshgacha va undan yuqori yoshdagilarni qamrab olgan mazkur sport tadbirida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “Navoiyuran” davlat korxonasi, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasida mehnat qilayotgan qariyb 300 nafar turli kasb egalari qatnashdi.



Mazkur ommaviy marafon mamlakatimizda ommaviy sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish maqsadida yuqori saviyada tashkil etildi.

Musobaqa doirasida qatnashchilarning qariyb 40 foizini ayollar tashkil etayotgani mazkur korxonalarda xotin-qizlarning sport va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

- Tetiklik uchun har tong yuguraman, - dedi Navoiy mashinasozlik zavodi xodimi Marjona Ashurova. - O‘yingohdagi bu debyut men uchun haqiqiy sinov bo‘ldi. Ayniqsa, oyoqlar toliqqan soniyalarda atrofda qilarning “olg‘a” deb bergan daldasi menga kuch bag‘ishladi. Turli yoshdagi kishilarning musobaqada ishtiyiq bilan ishtirok etishi atmosferani yanada unutilmas qilar ekan. Endi bu kabi sport musobaqalariga muntazam qatnashaman.

Ommaviy marafon ishtirokchilari 800 va 1 ming 200 metr masofalarda yugurdi.

Marafon yakunida 35 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar o‘rtasida “Navoiyuran” DK xodimi A.Shukurova va U.Ulug‘bekova 1 va 2 – o‘rinni, “NMZ” IChB xodimi M.Ashurova 3-o‘rinni, 45 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar o‘rtasida “Farhod” madaniyat saroyi xodimi Sh.Ibroimova birinchi, Tibbiy-sa-

nitariya bo‘limi xodimi M.Raxmonova ikkinchi, “NKMK” AJ boshqarmasi vakili D.Itkina uchinchi o‘rinni, 45 yosh va undan kattalar o‘rtasida esa Tibbiy-sanitariya bo‘limi xodimi G.Avezova birinchi o‘rinni, “NMZ” IChB xodimi Sh.Xalilova ikkinchi, Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi xodimi M.Abdieva uchinchi o‘rinlarni qo‘lga kiritdilar. Erkaklar o‘rtasida o‘tkazilgan musobaqada 35 yoshgacha bo‘lganlar orasidan “Qizilqum” kon boshqarmasi ishchilari A.Umirzoqov va A.Turdiyevlar 1 va 2-o‘rinni, “Navoiyuran” DK xodimi R.Quvondiqov 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. 45 yoshgacha bo‘lgan erkaklar o‘rtasida “NMZ” IChB xodimi Sh.Qodirov birinchi, “Navoiyuran” DK xodimi R.Rustamov ikkinchi, “Qizilqum” kon boshqarmasi ishchisi N.Mamadiyorov uchinchi o‘rinni, 45 yosh va undan kattalar o‘rtasida esa “So‘g‘diyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasi xodimi U.Todiyev g‘olib bo‘ldi. “Qizilqum” kon boshqarmasi xodimi S.Turdiyev 2-o‘rinni, Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi xodimi B.Shonazarov 3-o‘rinni egallashga musharraf bo‘ldi.

Musobaqa g‘oliblari “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan medal, diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

■ Oramizdagi odamlar

Inson umrini daryoga qiyoslaydilar. Bu bejiz emas. Umrning qadri yillar bilan emas, balki shu yillar davomida qilingan ezgu amallar, el-yurt va jamiyat taraqqiyotiga qo‘shilgan hissa bilan o‘lchanadi.

MEHNAT – UNING HAYOT FALSAFASI



Navoiy kon-metallurgiya kombinati ti-zimida ko‘p yillar samarali mehnat qilgan Shuhrat Davirov o‘zining bilim va tajribasi, tashkilotchilik salohiyati hamda fidoyiligi bilan jamoa hurmatiga sazovor bo‘lgan insonlardan biridir. Sh.Davirov yoshligidan texnika va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga qiziqqanligi bois 1983–1986-yillarda Dnepropetrovsk avtomatika va te-lemexanika bilim yurtida tahsil oldi. Harbiy xizmatni o‘tab qaytgach, mehnat faoliyati Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizi-mida, “Muruntov” konida nazorat-o‘lchov asboblari va avtomatika uchastkasida navbatchi elektrochilangariikdan boshlan-di. Uning uchun ish davri xizmat vazifasi-ni bajarishgina emas, bilim va malakasini oshirish maktabi ham bo‘ldi. Shuhrat Da-virov ishdan ajralmagan holda tahsil olib, 2003-yilda Toshkent davlat texnika univer-sitetining “Avtomatlashtirish va boshqaruv” yo‘nalishini tamomladi.

Mehnat faoliyatida “Muruntov” koni o‘ziga xos rivojlanish pillapoyalarni o‘tadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yerda u oddiy mutaxassisdan tajribali rahbar dara-jasigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Konda muhandis-elektronchi, uchastka ustasi, avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlari uchastkasi boshlig‘i o‘rinbosari, kon jihoz-larini ta‘mirlash sexi boshlig‘ining umumiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari kabi lavo-zimlarda faoliyat yuritdi. Ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur bilishi, texnik masala-larni puxta anglashi va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari unga rahbar sifatida shaklla-nish tajribasini berdi. Konda moddiy-texnik ta‘minot byurosi boshlig‘i sifatida ishlab, yirik korxonada ta‘minot tizimi ishining samarali tashkil etilishiga munosib hissa qo‘shdi.

Keyingi yillarda uning faoliyati Marka-ziy kon boshqarmasi bilan chambarchas bog‘landi. Dastlab ikki yil moddiy-texnik ta‘minot bo‘limi jihozlash guruhi rahbari, 2018–2024-yillarda esa boshqarma direk-torining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbo-sari lavozimlarida mehnat qildi. Aynan shu davrda Navoiy kon-metallurgiya kombina-tida amalga oshirilgan qator yirik investit-siya loyihalarini hayotga tatbiq etishda,

xususan, 5,7-gidrometallurgiya zavodlarini barpo etish, 2-gidrometallurgiya zavodi-ning ishlab chiqarish quvvatlarini kengay-tirish hamda “Muruntov” konini rivojlanti-rishning beshinchi navbati loyihasini amal-ga oshirish uchun bu muhim ob‘ektlarning zarur asbob-uskuna, texnika vositalari va jihozlar bilan ta‘minlanishida faol ishtirok etdi.

Boy tajriba va yuksak mas‘uliyat sohi-bi Shuhrat Shirdavlatovich 2024-yildan e‘tiboran Shimoliy kon boshqarmasi “Aum-inzo-Amantoy” koni boshlig‘ining umumi-y masalalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozi-mida faoliyat ko‘rsatmoqda.

r vazifaga puxta yondashish, qaror qabul qilishda jamoa va ishlab chiqarish manfaatlarini ustuvor qo‘yish ish uslub-i-ni ajralmas qismiga aylangan.

Shuhrat Davirovning ko‘p yillik samarali mehnati munosib baholangan. 2016-yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining III darajali “Konchilik shuhrati” ko‘krak nisho-ni bilan taqdirlandi. 2018-yilda “NKMK fax-riysi” unvoniga sazovor bo‘ldi. 2020-yilda esa II darajali “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi. 2021-yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlanishi uning mehnat faoliyatiga berilgan yuksak baho bo‘ldi.

Hamkasblari Shuhrat Shirdavlatovichni mehnatsevar, mas‘uliyatli, kamtarin rahbar sifatida qadrlaydilar. Oilasi uning hayotida muhim o‘rin tutadi. Turmush o‘rtog‘i Go‘zal Alimovna bilan birgalikda farzandlari — o‘g‘li Shahzod va qizi Nilufarning mehri va baxtidan kuch olib yashab kelmoqda.

Samarqand zaminida tug‘ilib, ish faoli-yatini Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan bog‘lagan Shuhrat Shirdavlatovich hayotini mehnat, kasb va jamoa manfaat-lariga bag‘ishladi.

Shuhrat Davirovning hayot yo‘lidagi har bir yutug‘i ortida katta mehnat, izlanish va mas‘uliyat mujassam. Oddiy ishchi kasbi-dan boshlangan bu yo‘l bugun yirik ishlab chiqarish korxonasidagi mas‘uliyatli rah-barlik faoliyati bilan davom etmoqda.

Azamat ZARIPOV.

■ Bilasizmi?



MING DARDGA DAVO NE‘MAT

Asalning tarkibida inson organizmi uchun nihoyatda foydali va shifobaxsh bo‘lgan yuzdan oshiq modda — fermentlar, mineral tuzlar, mikroelementlar, organik kislotalar, vitaminlar mavjud.

Asalning shifosi shundaki, u insonning qon tarkibini yaxshilaydi, immunitetni ko‘taradi, kuchli quvvat manbai hisoblanadi, organizmni erit qarishdan saqlaydi. Bu bilan u bolalar, kamqonli kishilar, homi-lador ayollar, qariyalar organizmi uchun behad foydali. Asaldagi ayrim darmondori va shifobaxsh moddalar boshqa hech bir ozuqada uchramaydi.

Tib ilmining sultoni Abu Ali i bn Sino ta‘biricha, navqironlikni saqlab qolish uchun asal iste‘mol qilib turish kerak. Ayniqsa, yoshi ulg‘ayib qolganlarga u bebaho shifo va quvvat manbaidir. U shamollash, holsizlik, asab to‘qimalari kasalliklarida yaxshi davo bo‘ladi. Ayniqsa, ozib ketish, ich qotishi, oshqozon-ichak zaralari kasalliklarini davolashda, miyani ozuqalanitirishda asqotadi.

Zamonaviy tibbiyotda ham asaldan tur-li kasalliklarni davolashda keng foydalanil-moqda. Davolash kosmetikasi, radiatsiya tufayli paydo bo‘ladigan nur kasalliklarida ham asal beminnat yordamchidir.

Shirin nektarni to‘plash uchun asala-rihar har xil o‘simliklarga qo‘nishadi. Ana shu qo‘ngan gullariga qarab asalning navi aniqlanadi. Turli navdagi asal sog‘liq uchun foydali. Ammo ayrim navlari muay-yan xastaliklarda samaralirroq hisoblanadi. Xususan, jo‘kadan olingan asal shamol-lash va yallig‘lanishlarda tavsiya etilsa, marjumakdan olingan nektar kamqonlik, jigar va buyrak kasalliklarida foydali hi-soblanadi. Kungaboqardan olingan asal

bronxial astmada naf bersa, dala qirqbo-g‘ini asab tizimini tinchlantirib, uyquni yax-shilaydi, kashtandan yig‘ilgan asal kuchli tabiiy antibiotik bo‘lib, safroning turib qo-lishiga chek qo‘yadi, ishtahani yaxshilaydi va tomirlarni mustahkamlaydi.

Asalni ovqatdan bir-bir yarim soat ol-din yoki ovqat yegandan uch soat o‘tgach iste‘mol qilish tavsiya etiladi. Uni shirchoy, sut yoki shirgurch bilan yegan foydaliroq. Asalni qaynoq suv yoki choysa aralash-tirib ichish tavsiya qilinmaydi. Chunki el-lik darajadan yuqori issiq suvga solingan asal tarkibidagi foydali minerallarni yo‘qo-tadi.

Barcha narsaning me‘yori bo‘lgani kabi asalning ham ozi shirin, albatta. Katta yoshdagilar bir kunda 100-150 gramm-dan, yosh bolalar esa 30-40 gramm-dan ortiq asal yemaganlari ma‘qul. Ammo uni o‘zboshimchalik bilan har kim o‘zicha qo‘llashi, bolalarni davolashda ishlatishi xatarli oqibatlarga olib borishi mumkin. Odatda, asal bolalarga choy qoshiqda ov-qatlanishdan bir soat oldin, shuningdek, ovqatlanishdan ikki-uch soat keyin berila-di. Shunda bolaning a‘zolari mustahkam-lanib, ishtahasi ochiladi.

Tabiiy asal vaqt o‘tishi bilan, albatta, krisstallanadi va sal qorayishi mumkin. Biroq foydasi kamaymaydi. Agar qishda suyuqligicha qolsa, demak, unga termik ishlov berilgan yoki shifobaxshlik xusus-i-yatini yo‘qotgan bo‘ladi.

■ Donorlik harakati

EZGULIK YO‘LIDA BIRLASHAYLIK

Inson hayotida shunday ezgu amallar borki,ularning ahamiyatini oddiy so‘zlar bilan ifodalash qiyin. Donorlik ana shunday savobli fazilatlardan. Zero qon topshirgan inson kimgadir hayot, kimgadir sog‘lik, yana kimgadir ertangi kunga umid va ishonch bag‘ishlaydi.

Donorlik – faqat tibbiy yordam ko‘rsa-tishgina emas, balki mehr – oqibat, in-sonparvarlik, fidoyilik va yuksak ijtimoiy mas‘uliyatning amaliy ifodasidir. Bir in-sonning ixtiyoriy ravishda qon topshirishi natijasida boshqa bir inson hayoti saqlab qolinishi, uning yaqinlari qalbidagi umid uy-g‘onishi mumkin. Shu bois donorlikni ez-gulikning eng oliy ko‘rinishlaridan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

faol ishtirok etishdi. E‘tiborlisi, aksiyada ishtirok etayotgan xodimlar uchun bu shunchaki tadbir yoki oddiy jarayon emas. Ular o‘zlarining bir necha millilitr qonini boshqa bir insonning hayoti va salomatligi uchun bag‘ishlamoq-dalar.

Tibbiyotda qon va uning tarkibiy qism-lariga ehtiyoj doim yuqori. Turli jarrohlik amaliyotlari, baxtsiz xodisalar, og‘ir kasal-



Bugun mamlakatimizda inson qadri-ni ulug‘lash, aholi salomatligini muhofa-za qilish, tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirish barobarida donorlik harakatini ommalashtirishga ham e‘tibor qaratilmoq-da. Milliy qonunchiligimizda donorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy rag‘-batlantirishga qaratilgan muhim kafolat-lar belgilangan. Hayotiy talabdan kelib chiqib, jamoalarda donorlik madaniyatini shakllantirish, aholi va ishchi-xodimlarni bu ezgu tashabbusga jalb etish muhim kasb etmoqda. Bu borada Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlarining tashab-buslari e‘tiborga loyiq. Kon boshqarmasi ishchi-xodimlari Samarqand viloyati qon quyish stansiyasi bilan hamkorlikda har oyda bir marotaba qon topshirish aksi-yasini muntazam tashkil etib kelmoqda. Har safar 40-50 nafar ishchi-xodim ushbu ezgu tashabbusda o‘z xohishi va ixtiyori bilan ishtirok etib, ehtiyojmand bemorlar uchun qon xazirasini to‘ldirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Yaqinda shunday xayrli tadbir “Ezgulik yo‘lida birlashaylik” aksiyasi doirasida o‘t-kazildi. Kon boshqarmasi ishchi-xodimlari liklar va shoshilinch tibbiy holatlarda do-nor qoni bemor hayotini saqlab qolishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu nuqtai-na-zardan qaraganda donorlikka qo‘shilgan hissa ortida katta ezgulik mujassam. Do-norlikning eng go‘zal jihati ham shundaki, yaxshilik kimga nasib etishini oldindan bilmaysiz, ammo uning samarasi inson hayotida namoyon bo‘ladi.

Janubiy kon boshqarmasida yo‘lga qo‘yilgan mazkur xayrli an‘ana nafaqat bemorlar uchun zarur qon xazirasini ya-ratishga, balki jamoada o‘zaro mehr-oqi-bat, hamjixatlik va insonparvarlik tuyg‘u-larini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday aksiyalar orqali ishchi-xodimlar jamiyatda beg‘araz yaxshilik qilish, o‘z-galar dardiga sherik bo‘lish, inson hayo-ti va salomatligiga daxldor masalalarga mas‘uliyat bilan yondashish kabi ezgu qadriyatlarini ham targ‘ib etishmoqda. Zero, ezgulikka qo‘shilgan har bir inson -hayotga umid bag‘ishlaydi. Shunday ekan, “Egulik yo‘lida birlashaylik!” degan da‘vat har birimiz uchun amaliy harakatga aylansin.

Dildora ATABAYEVA.

G‘OLIBLAR TAQDIRLANDI

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida tashkil qilingan velomarafonda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi, “Navoiyuran” davlat korxonasida mehnat qilayotgan 13 nafar havaskor xotin-qiz va ularning 10 – 12 yoshli farzandlari ishtirok etdi.



Velomarafon qatnashchilari “So‘g‘di-yona” o‘yingohida to‘rt yuz metr maso-fada g‘oliblik uchun kurash olib borish-di.

Yakunda “NKMK” AJ Ishlab chiqarish va avtomatlashtirish boshqarmasi xodi-mi Mahfuza Kenjaeva farzandi Amirjon bilan marraga birinchi, “Qizilqum” kon boshqarmasi xodimi Laylo Turdieva va o‘g‘li Jonibek ikkinchi, “Farhod” mada-

niyat saroyi xodimi Feruza Usmonova farzandi Azamat bilan uchinchi bo‘lib yetib kelishdi.

G‘oliblarga velomarafon tashkilotchi-lari tomonidan diplom va esdalik sov-g‘alari topshirildi.

Soxiba QILICHEVA,
“So‘g‘diyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasi boshlig‘i.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Muharrir: Nizomiddin SADRIDDINOV

ISSN 2020-5266

9 772010 526004

Tahririyat manzili: 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy, “NKMK” AJ boshqarmasi

Telefonlar: Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: Mansur HUSANOV

Texnik muharrir: Azamat ZARIPOV

Qog‘oz bichimi A2. 11200 nusxada chop etildi. Buyurtma № 354. 2026-yil 14-sentabr 17:00 da chop etishga topshirildi.